

SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2022- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2022- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **2789,3** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **46,1** ming kishiga yoki **1,7 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1011,0** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,2 %**), qishloq aholisi soni **1778,3** ming kishi (**63,8 %**)ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 138,8 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 194,4 ming kishi.

Doimiy aholi soni

2789,3

ming kishi

Tabiiy o'sish

+49267

ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar joylarda



1011,0 ming kishi

Qishloq joylarda



1778,3 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2022- yil 1- oktabr holatiga

Erkaklar


50,6%

Ayollar

49,4%



1410,5 ming kisi



1378,8 ming kishi


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2021- yil	2022- yil	O‘sish sur’ati, % da
Surxondaryo viloyati	2 726,3	2 789,3	102,3
Termiz sh.	187,6	194,4	103,6
tumanlar:			
Oltinsoy	183,0	186,9	102,1
Angor	136,6	139,6	102,2
Bandixon	78,2	80,2	102,6
Boysun	119,1	121,3	101,8
Muzrabot	146,3	149,5	102,2
Denov	397,4	407,1	102,4
Jarqo‘rg‘on	225,5	230,6	102,3
Qumqo‘rg‘on	242,3	247,6	102,2
Qiziriq	118,2	120,6	102,0
Sariosiyo	216,4	221,1	102,2
Termiz	79,9	81,6	102,1
Uzun	178,5	182,2	102,1
Sherobod	200,8	205,0	102,1
Sho'rchi	216,5	221,6	102,4

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2022- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Denov tumanida 407,1 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 247,6 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 230,6 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 80,2 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 7,1 ming kishi (1,8 %) va Qumqo'rg'on tumanida 4,0 ming kishini (1,6 %), Jarqo'rg'on tumanida 3,8 ming kishi (1,7 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 1,5 ming kishini (1,9 %) tashkil etdi.

SURXONDARYO VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI


Surxondaryo viloyati viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumotlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2022- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi



Viloyat bo‘yicha aholining tabiiy harakati

(yanvar - sentabr)

	<i>kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	<i>o‘sish, kamayish, +,-</i>	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>
Tug‘ilganlar	60 150	59 702	-448	29,7	28,9
O‘lganlar	10 032	10 435	403	5,0	5,0
Nikohlar	17 095	16 885	-210	8,5	8,2
Ajralishlar	1 662	2 075	413	0,8	1,0
Ko‘chib kelganlar	9 480	7 372	-2 108	4,7	3,6
Ko‘chib ketganlar	14 152	10 562	-3 590	7,0	5,1

Tug‘ilish. 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida 59,7 mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug‘ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti 28,9 promilleni tashkil etdi hamda 2021- yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar- sentabr oylarida 29,7 promille bo‘lgan).

Ma’lumot uchun: tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Qiz bola:

28,9 ming kishi



O‘g‘il bola:

30,8 ming kishi

SURXONDARYO VILOYATI

STATISTIKA BOSHQARMASI


2022- yilning yanvar-sentabr oylarida 59,7 mingta tug‘ilganlar qayd etilgan bo‘lib, shundan o‘g‘il bolalar 28,9 ming kishini, qiz bolalar 30,8 ming kishini tashkil etadi.

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar sonining
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2022- yil yanvar- sentabr)**

	2021- yil	2022- yil*	O‘sish sur’ati %
Surxondaryo viloyati	60 150	59 702	99,3
Termiz sh.	3953	4362	110,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	4141	3931	94,9
Angor	2881	2879	99,9
Bandixon	1768	1836	103,8
Boysun	2533	2377	93,8
Muzrabot	3029	3129	103,3
Denov	9202	8959	97,4
Jarqo‘rg‘on	5106	5071	99,3
Qumqo‘rg‘on	5328	5502	103,3
Qiziriq	2691	2616	97,2
Sariosiyo	4523	4461	98,6
Termiz	1766	1638	92,8
Uzun	3810	3815	100,1
Sherobod	4383	4196	95,7
Sho‘rchi	5036	4930	97,9

Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti

(2022- yil yanvar-sentabr)




Tabiiy o‘sish. 2022- yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o‘sishi 49,3 ming kishini (2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 50,1 ming kishi) tashkil etdi.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha

yanvar – sentabr

Jamiga nisbatan ulushi,

% da



Vafot etganlar. 2022- yilning yanvar- sentabr oylarida 10,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi, 2021- yilning mos davriga 5,0 promille bo'lgan.

2022- yilning yanvar- sentabr oylarida 10,4 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 56,8 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,1 % i o'simtalardan, 5,6 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,0 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 9,8 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 % i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,1 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2022- yil yanvar- sentabr oylarida)**

Hududlar	2021- yil	2022- yil*	O‘sish sur’ati %
Surxondaryo viloyati	10 032	10 435	104,0
Termiz sh.	863	786	91,1
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	630	700	111,1
Angor	543	659	121,4
Bandixon	230	343	149,1
Boysun	435	443	101,8
Muzrabot	510	449	88,0
Denov	1482	1223	82,5
Jarqo‘rg‘on	953	911	95,6
Qumqo‘rg‘on	852	971	114,0
Qiziriq	408	499	122,3
Sariosiyo	693	620	89,5
Termiz	339	335	98,8
Uzun	600	719	119,8
Sherobod	685	921	134,5
Sho'rchi	809	856	105,8




**Hududlar bo‘yicha nikoh tuzganlar sonining
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2022- yil yanvar-sentabr)**



Hududlar	2021- yil	2022- yil*	O‘sish sur’ati %
Surxondaryo viloyati	17 095	16 885	98,8
Termiz sh.	1118	1195	106,9
tumanlar:			
Oltinsoy	1053	1006	95,5
Angor	862	852	98,8
Bandixon	493	480	97,4
Boysun	661	670	101,4
Muzrabot	861	815	94,7
Denov	2507	2538	101,2
Jarqo‘rg‘on	1656	1716	103,6
Qumqo‘rg‘on	1577	1613	102,3
Qiziriq	671	724	107,9
Sariosiyo	1277	1231	96,4
Termiz	614	509	82,9
Uzun	1107	1038	93,8
Sherobod	1218	1102	90,5
Sho'rchi	1420	1396	98,3



Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2022-yil yanvar-sentabr)



**Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlar sonining
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(2022- yil yanvar-sentabr)**


Hududlar	2021- yil	2022- yil*	O‘sish sur’ati %
Surxondaryo viloyati	1 662	2 075	124,8
Termiz sh.	214	216	100,9
tumanlar:			
Oltinsoy	92	98	106,5
Angor	62	106	171,0
Bandixon	34	40	117,6
Boysun	54	62	114,8
Muzrabot	72	111	154,2
Denov	205	280	136,6
Jarqo‘rg‘on	161	192	119,3
Qumqo‘rg‘on	163	151	92,6
Qiziriq	53	87	164,2
Sariosiyo	150	203	135,3
Termiz	69	84	121,7
Uzun	121	172	142,1
Sherobod	116	161	138,8
Sho'rchi	96	112	116,7

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o‘tgan yilga nisbatan o‘sish kuzatildi. O‘tgan yilga nisbatan eng ko‘p o‘sish Angor tumani (0,4 promillega), Muzrabot tumani (0,3 promillega), Uzun tumanida (0,4 promillega) ro‘y berdi.

Aksincha kamayish Qumqo‘rg‘on tumanida (-0,1 promillega) tumanida kuzatildi.

Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

(2022- yil yanvar- sentabr kishi, promille)



Aholi migratsiyasi (kishi)

2022- yil yanvar- sentabr oylarida viloyat bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 7,4 ming kishini, ko‘chib ketganlar soni esa 10,6 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosи minus 3,2 ming kishi bo‘lib, 2021- yilning mos davrida minus 4,7 ming kishi bo‘lgan.

2021- yil
yanvar-sentabr



2022- yil
yanvar-sentabr



→ Ko‘chib ketganlar → Ko‘chib kelganlar → Migratsiya saldosи

Hududlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni
(2022- yil yanvar-sentabr uchun, kishi)

Hududlar	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosи
Surxondaryo viloyati	7 372	10 562	-3 190
Termiz sh.	2441	1120	1321
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	160	533	-373
Angor	496	543	-47
Bandixon	235	264	-29
Boysun	240	546	-306
Muzrabot	312	673	-361
Denov	542	1146	-604
Jarqo‘rg‘on	414	812	-398
Qumqo‘rg‘on	299	862	-563
Qiziriq	271	647	-376
Sariosiyo	264	694	-430
Termiz	628	685	-57
Uzun	288	663	-375
Sherobod	482	734	-252
Sho‘rchi	300	640	-340

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlari organlari tomonidan



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtaidagi farqning absolyut miqdori.

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
tel: (76) 225-65-60**